

ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATINI REJALASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rustamjonov Iskandar Ikrom o‘g‘li

IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Ichki ishlar organlarining zamonaviy bosqichdagi samarali faoliyati bevosita ularning strategik va operativ rejalashtirish tizimining puxta yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liqdir. Bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, aholi bilan muloqotni samarali tashkil etish ichki ishlar tizimidan yuqori darajadagi tashkiliy yondashuvni, aniqlikni va prognoz qilish qobiliyatini talab etadi. Ushbu annotatsiyada ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirish usullarini takomillashtirishning dolzarb jihatlari, tamoyillari, nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari atroflicha tahlil qilinadi. Avvalo, rejalashtirishning o‘zi boshqaruv faoliyatining ajralmas bo‘lagi sifatida ko‘riladi. U ma‘lum bir tizim ichida istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash, ustuvor maqsadlar belgilash, resurslarni samarali taqsimlash, vaqti-vaqti bilan monitoring olib borish, tahlil va natijaviy baholash kabi vazifalarni bajaradi. Ichki ishlar organlarida bu jarayon jinoyatchilik dinamikasi, jamoat xavfsizligi holati, xodimlar salohiyati va aholining ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. So‘nggi yillarda rejalashtirishga oid yondashuvlar tubdan yangilandi. Ichki ishlar tizimida axborot texnologiyalari, sun‘iy intellekt elementlari, kriminogen vaziyatni model qilish kabi innovatsion yondashuvlar tobora keng joriy qilinmoqda. Bu esa rejalarning nafaqat umumiy xususiyatlarini, balki hududiy va tarmoq darajasidagi aniq prognozga asoslangan shaklini ishlab chiqish imkonini bermiqda. Ushbu maqolada rejalashtirish usullarini takomillashtirishda uchrayotgan tizimli muammolar – ya‘ni, xodimlarning malakasi yetishmasligi, axborot bazasining yangilanmasligi, funksional muvofiqlikning pastligi, strategik fikrlashning zaifligi kabi omillar ham ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, maqolada ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirish yo‘llari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: tizimning raqamlashtirilishini chuqurlashtirish, rejalashtirishda ishtirokchilarning mas‘uliyatini oshirish, monitoring va baholash mezonlarini standartlashtirish, xorijiy tajriba asosida lokal model yaratish va xodimlar uchun uzluksiz o‘qitish tizimini joriy etish. Maqola yakunida esa ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirishning innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilishi nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashda, balki ijtimoiy ishonchni oshirishda ham muhim omil bo‘lishi alohida ta‘kidlanadi. Tizimni takomillashtirish esa umumiy xavfsizlik siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Kalit so‘zlar: rejalashtirish, ichki ishlar organlari, strategik boshqaruv, operativ faoliyat, huquqni muhofaza qilish, axborot texnologiyalari, statistik tahlil, innovatsion yondashuvlar, byurokratiya, faoliyat samaradorligi.

Аннотация: Эффективность современной деятельности органов внутренних дел напрямую зависит от совершенства системы стратегического и оперативного планирования. В условиях возрастания угроз общественной безопасности, роста преступности и усложнения форм правонарушений требуется высокий уровень организационного управления, точность в прогнозировании и системный подход. В данной аннотации всесторонне анализируются ключевые особенности усовершенствования методов планирования в деятельности органов внутренних дел, раскрываются как теоретические, так и практические аспекты этой проблемы. Планирование рассматривается как составная часть управленческой деятельности, направленная на определение перспективных направлений, расстановку приоритетов, рациональное распределение ресурсов, реализацию мониторинга и итоговую оценку эффективности. В системе МВД планирование осуществляется с учётом криминогенной ситуации, состояния общественной безопасности, кадрового потенциала, а также потребностей населения. В последние годы подходы к планированию были коренным образом обновлены. В деятельность органов внутренних дел активно внедряются информационные технологии, элементы искусственного интеллекта, системы аналитического моделирования. Всё это повышает точность прогнозов, позволяет формировать планы, ориентированные на специфику территорий и подразделений. В статье также поднимаются актуальные проблемы, с которыми сталкивается планирование: недостаточная квалификация сотрудников, устаревшая информационная база, несогласованность между уровнями управления, слабое развитие стратегического мышления. В качестве предложений приводятся следующие меры: углубление цифровизации системы, повышение ответственности участников планирования, стандартизация критериев оценки, адаптация зарубежного опыта и внедрение системы непрерывного обучения персонала. В заключение подчёркивается, что инновационный подход к планированию в системе МВД является важнейшим фактором в борьбе с преступностью, а также в укреплении доверия населения к правоохранительной системе. Совершенствование методов планирования приобретает особую значимость в рамках общей государственной политики безопасности.

Ключевые слова: планирование, органы внутренних дел, стратегическое управление, оперативная деятельность, правопорядок, информационные технологии, статистический анализ, инновационные подходы, бюрократия, эффективность деятельности.

Abstract: The effectiveness of the modern internal affairs system largely depends on the establishment of a comprehensive strategic and operational planning structure. In the current era, marked by growing threats to public security, increasing criminal sophistication, and evolving social demands, internal affairs agencies must adopt forward-thinking, data-driven, and technology-integrated planning methods. This annotation provides an in-depth analysis of the unique characteristics of improving planning methods

in the activities of internal affairs bodies, addressing both theoretical foundations and practical mechanisms. Planning is regarded as a core element of management that includes identifying long-term goals, establishing priorities, allocating resources efficiently, conducting regular monitoring, and evaluating outcomes. In the internal affairs system, this process incorporates data on crime rates, community safety levels, personnel readiness, and public needs. As planning becomes more contextualized, it helps individual units and departments address local realities more effectively. Recent years have seen a shift toward modernization in planning techniques. The integration of digital tools, artificial intelligence, geographic crime mapping, predictive modeling, and real-time analytics is becoming increasingly common within internal affairs departments. These innovations allow for not only broader strategic insights but also precise, localized interventions and risk forecasts. The article also sheds light on existing challenges that hinder effective planning in the internal affairs system. These include insufficient training among staff, outdated data infrastructures, lack of coordination between hierarchical levels, and underdeveloped strategic thinking. As a response, the paper recommends several practical solutions, such as enhancing digitalization efforts, fostering a culture of shared responsibility in planning, unifying evaluation standards, leveraging best practices from other countries, and institutionalizing continuous professional development programs. The annotation concludes that improving planning methods in the internal affairs system is not merely an administrative requirement but a crucial strategic imperative. By implementing innovative planning approaches, internal affairs bodies can significantly enhance their capacity to combat crime, strengthen public trust, and contribute to broader national security and governance goals. Planning thus becomes an indispensable element of internal reform and public administration excellence.

Key words: *planning, internal affairs bodies, strategic management, operational activity, law enforcement, information technologies, statistical analysis, innovative approaches, bureaucracy, performance efficiency*

KIRISH

Har qanday davlatning huquqiy asoslari, ijtimoiy barqarorligi va xavfsizligi, avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, ichki ishlar organlarining samarali faoliyatiga bevosita bog‘liqdir. Ayni shu nuqtai nazardan ichki ishlar organlari faoliyatini puxta rejalashtirish, ularning xizmat vazifalarini optimal tashkil etish, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va harakatlarni aniq yo‘naltirish zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ichki ishlar organlari nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashish, balki jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash, profilaktika tadbirlarini olib borish hamda davlat va jamiyat o‘rtasida ishonchli ko‘prik bo‘lishdek murakkab va mas’uliyatli vazifalarni bajaradi. Bu esa, albatta, ushbu tizimda harakatlarning izchilligi, tizimlilik va oldindan ko‘ra bilish qobiliyatiga tayanadigan rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirish deganda, ularning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, belgilangan maqsadlar sari intilishni

tashkil etish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, vazifalarni aniq belgilash va ularni muddatida bajarish bo'yicha strategik va operativ choralarni ishlab chiqish tushuniladi. Aytish joizki, bugungi global o'zgarishlar, tezkor axborot almashinuvi, jinoyatchilikning yangi shakllari va usullarining paydo bo'lishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi ichki ishlar organlarining faoliyatini rejalashtirishda innovatsion yondashuvlarga asoslangan, zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos, puxta tizimlarni joriy etishni talab etmoqda. Shuningdek, demokratik tamoyillar asosida faoliyat yurituvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun jamiyat bilan muloqotni yo'lga qo'yish, ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash ham rejalashtirish jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayni paytda ichki ishlar tizimida rejalashtirishning samaradorligini oshirish borasida qator tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda shu asosda qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar orqali bu yo'nalishdagi asosiy vazifalar belgilab berildi. Rejalashtirish faoliyatida strategik yondashuv, natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, xodimlar salohiyatini oshirish hamda faoliyatni baholashning aniq mezonlarini joriy etish kabi qator tamoyillar ilgari surildi. Shu bilan birga, amaldagi rejalashtirish tizimi hali-hanuz to'liq mukammal darajada ishlaymagan. Bu borada yuzaga chiqayotgan muammolar — xodimlarning rejalashtirish ko'nikmalarining yetarli emasligi, rejalarning ko'p hollarda formal xarakterda tuzilishi, mavjud ma'lumotlarning tahlilga asoslanmagani, monitoring tizimining zaifligi va baholash mezonlarining umumlashtirilmaganligi — rejalashtirish usullarini takomillashtirish masalasini dolzarb va ustuvor masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, joylardagi ichki ishlar bo'linmalari faoliyatini aniq maqsadlarga yo'naltirish, resurslar va xodimlarni optimal boshqarish, hududiy va tarmoq xususiyatlarini inobatga olish orqali individuallashtirilgan rejalashtirishga o'tish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirish usullarini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha yoritiladi. Rejalashtirishda zamonaviy yondashuvlarning o'rni, ilg'or xorijiy tajribalar, tizimda mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ichki ishlar organlarida boshqaruv samaradorligini oshirish, xizmat intizomi va javobgarlikni kuchaytirish, jamoatchilik bilan muloqotni mustahkamlash, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish singari dolzarb jihatlar ham rejalashtirish usullari bilan bevosita bog'liqligi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot ichki ishlar organlari faoliyatida rejalashtirish madaniyatini shakllantirish, uni takomillashtirish va zamonaviy boshqaruv tamoyillariga moslashtirish yo'lidagi ilmiy-nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi maqsad qilingan.

ASOSIY QISM

Ichki ishlar organlari faoliyatini samarali rejalashtirish usullari davlat boshqaruvi tizimida muhim o'rin egallaydi. Rejalashtirish – bu belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun resurslarni oqilona taqsimlash, harakatlarni oldindan belgilash, vaqtinchalik va strategik yo'nalishlarni belgilash imkonini beruvchi muhim boshqaruv funksiyasidir.

Ichki ishlar tizimida bu jarayon jinoyatchilikni aniqlash, unga qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash kabi faoliyat turlarini qamrab oladi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda ichki ishlar organlarining faoliyatini rejalashtirishda an'anaviy yondashuvlar yetarli samara bermayapti. Sababi, jinoyatchilik tabiati tobora murakkablashib bormoqda, axborot oqimlari hajmi ortib bormoqda, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda huquqbuzarliklar sodir etilmoqda. Shu bois, rejalashtirish usullarini takomillashtirish va ularni real ijtimoiy vaziyatga moslashtirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Rejalashtirishning asosiy usullariga quyidagilarni kiritish mumkin: strategik rejalashtirish, operativ rejalashtirish, joriy rejalashtirish va taktik rejalashtirish. Strategik rejalashtirish uzoq muddatli maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lib, ichki ishlar organlarining o'z faoliyatini yillar davomida qanday yo'naltirishi kerakligini belgilaydi. Operativ va joriy rejalashtirish esa qisqa muddatli faoliyatni muvofiqlashtirish, kunlik, haftalik yoki oylik vazifalarni belgilashga qaratilgan. Takomillashtirish esa bu usullarning o'zaro uyg'unlashuvi, ular orasidagi muvofiqlik va funksional aloqalarni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Rejalashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Masalan, axborot tizimlari asosida tuzilgan kriminogen xaritalar, jinoyatchilik statistikasi asosida tuzilgan prognoz modellari, sun'iy intellekt asosidagi tahliliy platformalar yordamida ichki ishlar organlari hududiy va funksional rejalashtirishda aniqroq qarorlar qabul qilmoqda. Bu texnologiyalar yordamida jinoyatchilik xavfi yuqori bo'lgan hududlar, xavf guruhidagi shaxslar, ijtimoiy ziddiyatli vaziyatlar aniqlanadi va ularning oldini olish choralari belgilab olinadi. Shuningdek, rejalashtirishda inson omili ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada ichki ishlar xodimlarining malakasi, tashabbuskorligi, tahliliy fikrlash qobiliyati, zamonaviy boshqaruv bilimlari yetarli bo'lishi kerak. Afsuski, ayrim hollarda rejalashtirish jarayonlarida bu omillar yetarlicha inobatga olinmaydi, rejalarining formallashuvi, natijadorlikka emas, balki ma'muriy hisobotga yo'naltirilganligi seziladi. Shuningdek, mavjud rejalarining bajarilishi ustidan monitoring tizimi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirishda o'ziga xos yondashuvlardan biri – joylardagi bo'linmalar faoliyatini differensial tarzda rejalashtirishdir. Har bir hududning ijtimoiy-demografik tarkibi, jinoyatchilik darajasi, migratsiya holati, infratuzilmasi va boshqa omillarni hisobga olgan holda individual rejalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Bunda markaziy rejalashtirishdan ko'ra pastki bo'g'inlarning tashabbuskorligini rag'batlantirish, joylardagi real muammolarni aniqlash va hal etish bo'yicha tashabbuslar e'tiborga olinishi kerak. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirishda xorijiy tajribani o'rganish va moslashtirish ham muhim o'rin tutadi. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda jamoatchilik bilan muloqot asosida rejalashtirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu tizimlarda fuqarolarning ehtiyojlari va takliflari hisobga olinadi, faoliyat ustuvorliklari shunga qarab belgilanadi. Bunday modelni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish ichki ishlar organlarining jamoatchilik orasidagi ishonchini yanada mustahkamlashi mumkin. Shuningdek, rejalashtirish natijalarini baholash

tizimi ham takomillashtirilishi zarur. Har bir rejaning bajarilish darajasi, natijadorligi, foydaliligi, iqtisodiy samaradorligi aniq mezonlar asosida o‘lchanishi lozim. Buning uchun indikatorlar tizimi joriy etilishi, shaffof baholash mezonlari ishlab chiqilishi, mustaqil audit va monitoring tizimlari yaratish tavsiya etiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirish usullarini takomillashtirish zamon talabi hisoblanadi. Bu jarayonni faqatgina tashkiliy o‘zgarishlar orqali emas, balki tizimli, axborotli, texnologik va inson omiliga asoslangan yondashuvlar asosida olib borish lozim. Bunda davlat siyosati, ilmiy salohiyat va amaliy tajriba uyg‘unligida muvofiqlashtirilgan tizim samarali natijalar berishi mumkin.

XULOSA

Ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirish va uni takomillashtirish zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada keltirilgan tahlil va fikrlar asosida shuni ta’kidlash lozimki, rejalashtirish jarayonini samarali tashkil etish nafaqat ichki ishlar organlarining vazifalarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida bajarish, balki ularning jamiyatdagi ishonchlilik darajasini oshirish, xavfsizlik va jamoat tartibini ta’minlashdagi ulushini kuchaytirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirishda mavjud yondashuvlar va usullar, asosan, an’anaviy va markazlashtirilgan tizimlarga asoslangan bo‘lib, ular har doim ham hududiy, ijtimoiy-demografik va kriminogen xususiyatlarni to‘liq aks ettira olmaydi. Shu bois, ushbu sohadagi faoliyatni innovatsion va tahliliy yondashuvlar bilan boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalari, kriminogen zonalarni prognozlash modellaridan foydalanish, tahliliy axborot tizimlarini joriy etish rejalashtirish jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, ichki ishlar organlarining faoliyatini rejalashtirishda inson omilining o‘rni va roli alohida e’tiborni talab qiladi. Xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, tahliliy fikrlash qobiliyati, boshqaruv madaniyati, mustaqil va mas’uliyatli qaror qabul qilishga tayyorligi rejalashtirish sifatini belgilab beradi. Buning uchun rejalashtirish bo‘yicha xizmat ko‘rsatadigan mutaxassislar tayyorlash, ular uchun o‘quv kurslarini tashkil qilish, ilmiy-amaliy tajribalarni muntazam ravishda almashish zarur. Yana bir muhim jihat shuki, rejalashtirish jarayonida jamoatchilik bilan muloqot, fuqarolarning fikri va ehtiyojlarini inobatga olish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash orqali rejalarning hayotga tatbiq etilish samaradorligi oshadi. Bu esa, ichki ishlar organlari va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muhitini mustahkamlab, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni kuchaytiradi. Shu munosabat bilan ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni ilgari surish maqsadga muvofiq bo‘ladi: birinchidan, mavjud rejalashtirish tizimini modernizatsiya qilish, ikkinchidan, raqamli texnologiyalar asosida tahliliy modellarni joriy etish, uchinchidan, xodimlarning malakasini oshirish, to‘rtinchidan, xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganib, milliy sharoitga moslashtirish, beshinchidan esa, jamoatchilik bilan ochiq muloqotga asoslangan rejalashtirish tizimini shakllantirish. Umuman olganda, ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirish usullarini takomillashtirish masalasi — bu nafaqat tashkiliy va boshqaruviy

zarurat, balki huquq-tartibot idoralarining yangi davr talablari asosida faoliyat yuritishiga tayanch bo‘luvchi hal qiluvchi omillardandir. Mazkur maqolada ilgari surilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirishda va tizimni takomillashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1999.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: Adolat, 2017.
3. Axmedov M., Egamberdiyev A. Kriminalistika va jinoyatlarni tergov qilish. – T.: Sharq, 2020.
4. Yusupov M. Davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish tizimida rejalashtirish: nazariy va amaliy masalalar. – T.: IIV Akademiyasi, 2021.
5. Sobirov V. Ichki ishlar organlari faoliyatini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar. – T.: Huquq, 2022.